ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAHMUD KOSHG'ARIY DAVRI TURKIY TIL VA HOZIRGI NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARI FONETIK XUSUSIYATLARI

Darvishaliyeva Mahliyo Rustamali qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tildagi o'zgarishlar, xoh u adabiy til, xoh sheva bo'lsin, birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan uzoq davr davomida sodir bo'ladi. Dastlab onda-sonda uchraydigan fonetik hodisalar, fonetik variantlar, asta-sekin qonuniyatga aylanadi.

Dialektlarning tarixiy taraqqiyoti uchun xos bo'lgan fonetik xususiyatlar va ularning ko'rinishlari janubi-g'arbiy Namangan shevasining undoshlar tizimida ham saqlanib qolgan.

Ma'lumki, qadimgi turkiy til undoshlarining qattiqligi (yo'g'onligi) va yumshoqligi (ingichkaligi) bilan eski turkiy va hozirgi o'zbek tilidan keskin farqlangan.

Eski turkiy tilda *q* va *k, g'* va *g* kabi ikki juft undosh orasidagina qattiq-yumshoqlik farqi saqlanib qolgan xolos. Boshqa undoshlarda bunday holat sezilmaydi[1]. Biroq janubiy-g'arbiy Namangan qipchoq shevalariga eski turkiy tilidagi undoshlar tahlilga[2] asoslangan holda fikr yuritsak, *ng* undoshining yumshoqlik va qattiqlik jihatini kuzatamiz.

Namangan qipchoq shevalari fonetik-fonologik tizimida *ng (ng)* chuqur til orqa sonor tovushi Koshg'ariy davri tili fonetik-fonologik strukturasidagi ayrim xususiyatlarini saqlab qolgan. Mingbuloq tumanining Gurtepa, Oltinko'l, Qumqishloq, Uzuntepa, Mulkobod qishloq-lari shevasida til o'rta va chuqur til orqa sonor sifatida qo'llanishi farqlanadi. Sharqiy Namangan shevalar areali qarluq lahjalarida muqim o'ringa egaligi kuzatilmaydi. Barcha o'zbek shevalari va adabiy tilda bo'lganidek, faqat so'zning o'rtasi va oxirida keladi: ***[mengəyəm]*** *menga ham,* [***yəng'ttə***] *hozir, [ɔ**ng**] oling, [**keng**] keling, [**sɔng**] soling, [**bo'ng**] bo'la qoling, [**tɔngng'**] tang'imoq* kabi.

Namangan qipchoq shevalari arealida XI asr turkiy til davridagi kabi[3] yumshoqlik va qattiqlik fonologik belgilari, ma'no farqlashni yuzaga keltiradi: ***[nγməng(g')ɔ]*** nima uchun, nima sababdan – sabab ravishi so'rog'i, ***[nγməngə]*** nimaga – ot turkumi so'rog'i. ***[bɔzɔrg'ɔ nγməng(g'ɔ) bɔrɔsɔn?]*** *Bozorga nima uchun (nima olishga) borasan?* ***[bγn' nγməngə sɔlɔy?]*** *Buni nimaga solay?* kabi.

Bugungi kunda bu holat faqat ayrim so'zlar miqyosidagina Koshg'ariy davri tili xususiyatlarini o'zida saqlab qolmoqda. Shevada qadimgi tipik jarayonligi susayib, asta-sekinlik bilan tillar integratsiyasi tufayli tugab bormoqda.

Turkologlar tomonidan *ng(ng)* undoshining urchishi, tarixiy taraqqiyoti murakkab ekanligi ta'kidlangan[44]. Namangan qipchoq shevalarida turli hollarda *n* tovushi sifatida saqlanganligi, *y* va *g'* tovushlariga aylanganligi hamda asliday qo'llanishini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi va eski turkiy tildagi *yəling* so'zidagi *[ng]* undoshi ***yɔlin*** tarzida *n* ga aylangan: ***[yɔlin]*** alanga, ***[yəlngiz]*** so'zida *g'* ga o'zgargan: [***yɔlg'iz***] *yolg'iz,* ***[səngək]*** so'zida *y* undoshiga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin: ***[sγγək]*** *suyak* kabi. Mazkur shevada *[ng]* undoshi o'zining tarixiy aslini ko'p so'zlarda saqlab qolgan: *[*onggir[5] ***-cho'ngqir]***[6] *notekis,* ***[engək]*** *engak:* ruscha *podborodok, [*ongəy// o'ng*]* qulay, *[*γngγqɔn*]* *rangi o'chgan* kabi.

Bundan tashqari, xalq jonli tilida, ayrim turkiy adabiy tillarda *[ng]* undoshi *v* tarzida qo'llanishi yoki umuman tushib qolishi mumkinligi haqida fikrlar bor[7], biroq Namangan qipchoq shevalarida *[ng]* undoshin-

[1] Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

[2] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент: Фан, 1960. I том. – Б. 218.

[3] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент: Фан, 1963. I том – Б. 110.

[4] Малов С.Е. Памятники древней тюркской письменности. – М.: Наука, 1951. – С.11; Щербак А. М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л., 1962; Сравнительная фонетика тюрского языка. – Л., 1970; Решетов В.В, Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек шевалари ва улар ҳақида умумий маълумот. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1962; Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.

[5] Маҳмуд Кошғарий онгур сўзи ғор – чуқурлик маъносида қўлланишини таъкидлаган. ЖҒН қипчоқ шеваларида бу сўз чуқурлик ва нотекис йўл маъносида ишлатилади.

[6] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент: Фан, 1963. I том – Б. 110.

[7] Дмитриев Н. Фонетические закономерности начала и конца тюркского слова. ИСГТЯ. I. – С. 271; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970. – С.97; Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи,

ing *v* undoshiga aylangan holatlari yoki umuman tushib qolishi uchramaydi. Chunki bu shevada *[ng]* undoshining alohida o‘rni juda keng va ahamiyatli lisoniy – fonologik imkoniyatlari borligi kuzatiladi.

Shunisi xarakterliki, Namangan qipchoq shevalarida, xuddi XI asr turkiy til davridagi kabi, bu undosh so‘z, o‘zak tarkibidagi unlilarning qattiq, yumshoqligigi va o‘zidan keyin kelgan undosh tovushlarning artikulyatsion o‘rniga ko‘ra uch xil pozitsiyada talaffuz etiladi: a) o‘zakdagi unlilar yumshoq, til oldi unlilari bo‘lsa, *[ng]* undoshi nihoyat yumshoqlashib, til oldi tomon siljiydi. Til uchi egilib pastki tishga, egilgan joyi bilan yuqori tanglayning old tomoniga tegadi: ***[ekkьzьng]*** *ekdiring,* ***[bγzγng]*** *buzing,* ***[s’yn’ngchi]*** *singling-chi* kabi; b) o‘zakning tarkibida til orqa unlilari bo‘lsa, orqaga siljiydi, til orqa undoshidek talaffuz etiladi: ***[nɔningingizdɔn bering]*** *noningizdan bering,* ***[yangь kept’]*** *hozir kelibdi,* ***[bungɔ]*** *bunga* kabi; v) o‘zak tarkibida til orqa unlilari bo‘lib, [*ng*] undoshidan so‘ng [*g‘,q*] chuqur, [*g*] sayoz til orqa tovushi kelsa, nisbatan orqaga siljib, chuqur til orqa tovushidek talaffuz etiladi, burunlashish kuchayadi. [*NG*] ham, [*g‘*] undoshi ham sof *ng, g‘* undoshlaridek talaffuz qilinmaydi: ***[yɔlɔngg‘ɔch]*** *yalang‘och,* ***[ɔmɔg‘ɔngu]*** *olmagan-ku,* ***[bo‘mɔg‘ɔngu]*** *bo‘lmaganku,* ***[biqinglɔg‘ɔn]*** *bilqillagan, yumshoq,* ***[ingqillɔg‘ɔn]*** *inqillagan* kabi.

Namangan qipchoq shevalarida [*ng*] undoshi qator undoshlarga nisbatan turg‘un bo‘lsada, sporadik o‘zgarishga yuz tutadi: [*ng>y*]: ***[s’yn’m]*** *singlim,* ***[ko‘ynim]*** *ko‘nglim,* ***[sγyək]*** *so‘ngak* kabi. Lekin bular Toshkent tip shevalaridagidek yoki qarluq lahjalari kabi keng tarqalgan emas.

Namangan qipchoq shevalarida chuqur til orqa x fonemasi bo‘g‘iz undoshi *h* undoshi kabi talaffuz qilinadi. Qipchoq shevalarida x (qattiq) va h (yumshoq) undoshlarining fonematik belgilari yo‘q, ma’no farqlanmaydi.

H – sirg‘aluvchi, jarangsiz bo‘g‘iz undoshi. Talaffuzda boshqa umumo‘zbek shevalaridagidan farq qilmaydi. Dialektal areal qipchoq shevalarida *h* undoshi so‘zning istalgan pozitsiyasida, chuqur til orqa x o‘rnida ishlatiladi: ***[həy’t]*** *hayit,* ***[həmmə]*** *hamma,* ***[bɔhɔ]*** *baho, [ɔhmɔq] ahmoq,* ***[dɔrɔh]*** *daraxt, [*γhlɔ*] uxlamoq (uyqi)* kabi. Lekin so‘z boshida ishlatilish darajasi shevalararo bir xil emas.

Sharqiy, shimoliy va markaziy areal qarluq tip shevalarida adabiy til me’yorlariga mos keladi.

Namangan qipchoq shevalarida *h* undoshi so‘z boshida kelganda «y» lovchilarda nemischa *(ich)* tarzida talaffuz etiladi, «j»lovchilarda tushib qoladi: ***[həngəmə // əngəmə]*** *hangoma,* ***[hərəkət//ərəkət]*** *harakat,* ***[həptьyək// əpt’yək]*** *haftiyak,* ***[həppɔ// əppə]*** *semiz,* ***[hənəp’yə//ənəp’yə]*** *hanafiya* kabi.

Namangan viloyatining janubi-g‘arbiy hududiga mansub «y» lovchi qipchoq shevalarida (Baland Gurtepa, Gurtepa, O‘rtaqishloq, Uzuntepa, O‘zgarish, Mulkobod, Etak, Qoryontoq, Do‘msa, Qo‘shqishloq, SHo‘rsuv, Terak, Dovduq kabi qishloqlarda) o‘zbek tilining boshqa shevalarida uchramaydigan, turkiy bashqir, xakas tillariga xos ayrim fonetik xususiyatlar kuzatiladi:

a) *s>h* tovushlari almashuvi: Praga lingvistik maktabining fonologik kontseptsiyasi bo‘yicha, bir xil fonning qurshovida erkin almashinish munosabatida bo‘lgan ikki tovushning biri o‘rnida ikkinchisining kelishi ma’noga ta’sir etmasa, bu tovushlar bir fonemaning ikki varianti hisoblanadi. Odatda erkin almashinish munosabatida muayyan belgisiga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan tovushlar bo‘ladi. Lekin ma’lum umumiy belgiga ega bo‘lmagan tovushlar bunday munosabatga kirishmaydi.

Xarakterli jihati, Namangan qipchoq shevalarida akustik-artikulyatsion jihatdan umumiylikka ega bo‘lmagan tovushlarda ham o‘zaro erkin almashish distributsiyasi kuzatiladi. Xususan, *s* undoshi lokallik belgisiga ko‘ra ham, akustik belgisiga ko‘ra ham, artikulyatsion usuliga ko‘ra ham bo‘g‘iz undoshi *h* ga o‘xshamaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, so‘zning turli pozitsiyalarida bu tovushlarning o‘zaro ma’noga ta’sir etmagan holda erkin almashinishi kuzatiladi. Masalan, so‘zning anlaut pozitsiyasida: ***[hɔmsɔhp’yɔz]*** *sarimsoqpiyoz,* ***[heskɔnmmə]*** *seskanma,* ***[hьnchələk]*** *sinchalak,* ***[həy’-hərəkət]*** *sa’y-harakat,* ***[hγp-kγp]*** *suf-kuf,* ***[hγhchelpək]*** *suqchelpak: kinna, suq kirganga tandirda pishirib beriladigan maxsus non turi* kabi.

Ko‘rinadiki, anlautda *s* undoshining *h* undoshiga almashinishi mazkur undoshdan keyin kelgan unlilarning keng-torlik, lablanish-lablanmaslik belgilariga bog‘liq emas. *S* va *h* undoshlarining keng unlilar oldida ham, tor unlilar oldida ham, lablangan va lablanmagan unlilar oldida ham almashinishi kuzatiladi.

Shevadagi *s>h* undoshlarining yana bir xarakterli xususiyati shundaki,

bu fonetik o‘zgarish morfemik birliklarning moddiy shakliga ham ta’sir qiladi. Xususan, unli bilan tugagan asos qismga uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasi *-hi* shaklida qo‘shiladi: ***[enə+hi]*** *onasi,* ***[*ɔtɔ***+hi]*** *otasi,* ***[bɔlɔ+hi]*** *bolasi, o‘zlashma so‘zlarda:* ***[mɔhnə+hi]*** *mashinasi,* ***[so‘mkə+hi// həmkə+hi]*** *sumkasi,* ***[mɔhnə+hi]*** *mashinasi* kabi. Namangan qipchoq shevalarida so‘z oxirida *h* undoshining *s* undoshi o‘rnida qo‘llanmaydi.

Ma’lumki, rus va boshqa Evropa tillaridan o‘zlash-

1992. – Б. 61- 66.

gan so‘zlarning boshida bir bo‘g‘in tarkibida kelgan ikki va undan ortiq undoshlarni talaffuz qilish qiyinligi tufayli, og‘zaki nutqda talaffuz qulayligini ta’minlash uchun bunday leksema nomemalarining fonetik tuzilishi turkiy nomemalari fonetik arxitektonikasiga moslashtiriladi. Natijada ana shunday o‘zlashma leksemalarning fakulьtativ varianti vujudga keladi.

Namangan qipchoq shevalarida *h* undoshi *sh*, *ch* va hatto, ba’zan *t* undoshi bilan ham ana shunday munosabatga kirisha oladi.

Masalan: *sh>h: **[hɔqir-hγqir]** shaqir-shuqur, **[hil-piq]** shilpiq, **[himər]** shimarmoq, **[hishshə]** shisha, **[hɔlvirɔmə]** shalviramoq, **[hьshirmə]** shishirmoq, **[hγndəyьchə]** shundayligicha, **[hɔmg‘ɔlɔt]** shamg‘alat, **[hγnchə]** shuncha, **[hγnchəl’k]** shunchalik, **[mɔhnɔqɔ//məhnəqə]** mana shunaqa, **[məhindəy]** mana shunday, **[məhinchə]** mana shuncha; ch>h: **[hɔhchɔymɔ]** chaqchayma, **[həkəngləmə]** chakanglama, **[hingqirmɔ]** chinqirma, **[hirɔmmɔ]** chiranma, **[hьmr’lmə]** chimirilma, **[həkkələ]** cho‘kkala, **[huvvɔs]** chuvvos, **[hulь-chul’]** chuli-chuli, **[həkənə-hγkənə]** chakana-chukana, **[həlkəsh-hulkəsh]** chalkash-chulkash, **[hənggək]** changak: ilmoq, ilgich* kabi.

Hudud shevalarida so‘z oxiridagi *sh* va *ch* undoshi o‘rnida *h* undoshining qo‘llanishi kuzatilmaydi.

Ayrim hollarda til oldi, jarangsiz *t* undoshi ham bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi *h* undoshiga almashadi: ***[o‘hlɔt]** o‘tlat, **[qəhnə]** qatnamoq, **[iht’vər]** itqib yubor, irg‘itmoq* kabi.

Ko‘rinadiki, Namangan qipchoq shevalarida *h* undoshi juda faol qo‘llanadi va turli pozitsiyalarda *s, ch, sh, t* undoshlari o‘rnida almashinib kela oladi. Bu esa sheva vakillarining Mahmud Koshg‘ariy mansub bo‘lgan turkiy sheva bilan genetik bog‘liqligi haqidagi xulosalar kelib chiqishiga turtki bo‘ladi, chunki u o‘zini unli bilan boshlangan so‘zlar oldiga *h* undoshini orttirib qo‘llaydigan uruqqa mansubligini ko‘rsatgan edi[17].

Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ot-it turk» asaridagi fonetik-fonologik nazariyalar bilan hozirgi o‘zbek tili va Namangan qipchoq shevalari ayrim undoshlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, tarixiy jihatdan undoshlar keskin o‘zgarishlarga uchramagan. Undoshlarga oid o‘zgarishlar, asosan, yangi undoshlarni o‘zlashtirish va tovush almashinish-lari bilan chegaralanadi, bu esa til tarixining asl ko‘rinishi – shevalarda undoshlar unlilardan ko‘ra barqaror bo‘lgan deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Rezyume. Ushbu maqolada M.Qo‘shg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk» asaridagi fonetik va fonologik qarashlari va uning bugungi kundagi Namangan janubi-g‘arbiy shevalarida qo‘llanishi, shuningdek, Namangan qipchoq shevalarida akustik-artikulyatsion jihatdan umumiylikka ega bo‘lmagan tovushlarda ham o‘zaro erkin almashish distributsiyasi haqida fikr yuritiladi.

Резюме. В данной статье рассматриваются фонетические и фонологические взгляды М. Кошгари в его труде «Девони лугатит турк» и их применение в современных юго-западных наманганских диалектах, а также распространение свободного чередования звуков, не имеющих общности в акустическом и артикуляционном отношении, в наманганских кипчакских диалектах.

Resume. This article discusses the phonetic and phonological views of M.Qoshgari in his work «Devoni lugatit turk» and its application in today’s southwestern Namangan dialects, as well as the distribution of free interchange of sounds that do not have commonality in terms of acoustic and articulation in Namangan Kipchak dialects.

1 [7] *Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент: Фан, 1963. I жилд. – Б. 17.*